



AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Norqobilov Nusratilla

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-5045-1194

nusrat.1977@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada aholi turmush farovonligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda uning asosiy belgilovchi omillari tahlil qilinadi. Aholi turmush farovonligini yaxshilash bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aholi turmush farovonligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, real daromadlar, bandlik, ijtimoiy tenglik, hayot sifati, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

РОЛЬ БЛАГОПОЛУЧИЯ НАСЕЛЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

Норқобилов Нусратилла

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируется роль благополучия населения в социально-экономическом развитии и основные факторы, его определяющие. Разработаны соответствующие рекомендации по совершенствованию государственной политики, направленной на повышение благосостояния населения.

Ключевые слова: благосостояние населения, социально-экономическое развитие, реальные доходы, занятость, социальное равенство, качество жизни, макроэкономические показатели.

THE ROLE OF POPULATION WELL-BEING IN SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

Norkobilov Nusratilla

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article analyzes the role of the well-being of the population in socio-economic development and its main determinants. Relevant recommendations are developed for improving state policy to improve the well-being of the population.

Keywords: well-being of the population, socio-economic development, real incomes, employment, social equality, quality of life, macroeconomic indicators.

Kirish.

Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida asosiy maqsadi - aholining turmush darajasini oshirish, barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir. Aholi turmush farovonligi bu nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilanadigan daromadlar yoki iste'mol imkoniyatlari, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va yashash muhiti kabi ko'plab omillar bilan bevosita bog'liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir.

Shuning uchun farovonlikni ta'minlash mamlakatning umumiy taraqqiyot darajasi, uning iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy barqarorligi bilan uzviy bog'liq.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar jarayonida aholi turmush farovonligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, ijtimoiy sohalarining moliyalashtirilishini kengaytirish, hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali farovonlikni oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Aholi turmush farovonligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi, farovonlikni belgilovchi omillar tizimi tahlil qilinadi hamda milliy va xalqaro tajriba asosida barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar sharhi.

Global iqtisodiyotda aholi turmush farovonligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, farovonlik darajasi nafaqat milliy daromad miqdoriga, balki resurslar taqsimoti, xizmatlardan foydalanish imkoniyati, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologik holat va subyektiv mamnunlik darajalariga bog'liqdir.

Nobel mukofoti sovrindori Sen (2004) tomonidan ishlab chiqilgan "salohiyatlar yondashuvi" (capability approach) nazariyasida iqtisodiy o'sish va farovonlik tushunchalari orasidagi tafovut chuqur tahlil qilinadi. Sen iqtisodiy rivojlanish faqat yalpi ko'rsatkichlarning o'sishi emas, balki har bir insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Keyingi yillarda BMT, OECD va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan farovonlikni o'lchash tizimlari ham ushbu yondashuvga tayangan holda shakllantirilgan.

Xususan, OECD (2020) tomonidan taklif etilgan "How's Life" konsepsiyasi farovonlikni 11 ta asosiy indikatorlar (daromad, bandlik, sog'liq, ta'lim, shaxsiy xavfsizlik, ijtimoiy aloqalar va h.k.) asosida kompleks baholaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda, ayniqsa Skandinaviya mamlakatlarining amaliy tajribasi farovonlik va barqaror iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya kabi davlatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish, teng imkoniyatlar yaratish va davlat xizmatlaridan erkin foydalanishni ta'minlash orqali yuqori turmush darajasi barpo etilgan (Kvist, 2015).

Yana bir muhim yo'nalish bu farovonlikni subyektiv baholash bilan bog'liq tadqiqotlardir. Layard (2005) va Kahneman (2010) kabi olimlar iqtisodiy omillar bilan bir qatorda, odamlarning psixologik holati, hayotdan qoniqish darajasi va ijtimoiy muhit ham farovonlikning ajralmas qismlaridan biri ekanini ta'kidlaydi.

MDH davlatlarida, xususan Rossiyada turmush farovonligini o'rganish bo'yicha yetakchi ilmiy maktablardan biri Vologda ilmiy markazi hisoblanadi.

Шабунова (2017) tadqiqotlarida farovonlikni hududiy nomutanosiblik, ijtimoiy tengsizlik va davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq holda tahlil qiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi - Малёва (2016) esa farovonlikka subektiv yondashuvni ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, aholining o'z hayotidan qancha darajada qoniqishi, xavfsizlik, kelajakka ishonch va jamiyatdagi ijtimoiy muhit farovonlikni shakllantiruvchi omillardandir. U Rossiya sharoitida aholining subektiv baholari bilan obyektiv ko'rsatkichlar orasida muayyan tafovut mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Qozog'iston olimlari ham farovonlikni iqtisodiy o'sishning sifat omili sifatida ko'rib chiqmoqda. Medvedeva va Abishev (2020) o'zlarining tadqiqotlarida mamlakatda o'sib borayotgan ijtimoiy tafovut, daromadlar nomutanosibligi va iqtisodiy o'sish natijalarining ijtimoiy guruhlar o'rtasida teng taqsimlanmasligi farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida esa aholi farovonligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida keng tahlil etiladi. Mahmudovning (2022) ta'kidlashicha, farovonlik darajasi bevosita iqtisodiy barqarorlik, aholi bandligi, real daromadlar va ijtimoiy himoya mexanizmlariga bog'liq deb ta'kidlaydi.

Natijaviy jihatdan qaraganda, xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlari turmush farovonligini faqat iqtisodiy mezonlar asosida emas, balki ijtimoiy, psixologik va siyosiy omillar majmuasi sifatida talqin etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu boradagi dastur va strategiyalarning natijadorligini aniqlash maqsadida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'rganish zaruratga aylanmoqda. Ayniqsa, daromadlar tarkibi, iste'mol xarajatlari, bandlik strukturasidagi o'zgarishlar, hududlar kesimidagi tengsizliklar, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining sifati kabi omillar turmush farovonligining real holatini ko'rsatadi.

Aholining turmush farovonligi darajasini belgilovchi asosiy omillar, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda. Xususan, 2024-yil yakuniga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) 6,3 % ga o'sdi. Bu o'sish sanoat, qurilish va xizmatlar sohasida yuz bergan kengayishlar hisobiga yuzaga keldi. Ayni vaqtda, iqtisodiy o'sish natijalari bevosita aholi turmush darajasiga qanday ta'sir qilayotgani masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. YAIM o'sishi bilan birga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham muhim. 2024-yilda aholining real pul daromadlari o'sishi 4,4 % ni tashkil etdi, bu esa inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda o'rtacha ijobiy tendensiyaning bildiradi. Biroq bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sish sur'atlaridan past bo'lishi, turmush farovonligining barcha qatlamlar uchun teng taqsimlanmayotganini anglatadi.

O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 % dan 2024-yil oxiriga kelib 11 % gacha qisqardi. Bu ijobiy o'zgarish, asosan, "Har bir oila - tadbirkor", "Yoshlar - kelajagimiz", "Temir daftar" kabi maqsadli ijtimoiy dasturlar doirasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish, bandlikni kengaytirish va manzilli yordam mexanizmlarining joriy etilishi orqali amalga oshdi. Shu bilan birga, hududlararo kambag'allik darajasida muayyan tafovut saqlanib qolmoqda. Masalan, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston va Sirdaryo viloyatlarida kambag'allik nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa hududiy nomutanosiblik muammosining davom etayotganini anglatadi.

Aholining farovonligiga eng katta ta'sir qiluvchi omillardan biri bu - barqaror bandlik va munosib mehnat haqi. 2024-yil yakuniga ko'ra, o'rtacha oylik ish haqi 5,35 million so'm atrofida bo'lib, Toshkent shahri va ayrim rivojlangan viloyatlarda bu ko'rsatkich 8-9 million so'mga yetdi. Shu bilan birga, qishloq joylarda va ayrim kasb turlarida ish haqi darajasi yashash minimumidan past bo'lib qolmoqda.

Bandlik darajasini oshirish uchun davlat tomonidan har yili minglab yangi ish o'rinlari yaratilib, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi maqsadli dasturlar orqali aholining mehnat bozoridagi faolligi rag'batlantirilmoqda.

Aholining turmush farovonligi faqat daromadlar bilan emas, balki sifatli ta'lim, tibbiy xizmat, uy-joy bilan ta'minlanganlik va yashash muhitining qulayligi kabi omillar bilan ham belgilanadi. O'zbekistonda 2022–2024-yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda, sog'liqni saqlashda esa "Sog'lom ona va bola", "Birlamchi bo'g'in islohoti" kabi dasturlar amalga oshirilmoqda.

Aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasi yil sayin oshmoqda, biroq qishloq joylarda bu borada hali sustlik kuzatilmoqda.

So'rovnomalarga ko'ra, aholining aksariyati hayotidan qoniqish bildirayotgan bo'lsa-da, farovonlikka erishishda asosiy muammolar sifatida quyidagilar qayd etiladi: past daromad, uy-joy yetishmovchiligi, sifatli sog'liqni saqlash xizmatlarining cheklanganligi. Shu bois, aholining ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy ishtirokini kuchaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda (1-jadval).

1-jadval

Aholi turmush farovonligi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2020–2024 yillar)

№	Ko'rsatkich nomi	2020	2021	2022	2023	2024	Izoh
1	YAIM o'sish sur'ati (%)	1,7	7,4	5,7	6,3	6,5	Iqtisodiyot barqaror o'sishda
2	Jon boshiga real YAIM o'sishi (%)	–	–	–	4,4	4,4	Har bir individ uchun iqtisodiy imkoniyat o'sishi
3	Kambag'allik darajasi (%)	17,0	17,0	14,1	11,0	8,9	"Farovonlik sari" kampaniyasi samarasi
4	O'rtacha oylik ish haqi (mln so'm)	2,9	3,2	4,1	5,35	–	So'nggi ma'lumot 2023-yil uchun
5	Rasmiy bandlik darajasi (%)	62,0	64,2	66,3	67,5	–	Statistik yangilanish kutilmoqda
6	Umumiy ichki daromad (yanvar–sentabr, trln so'm)	–	–	–	–	644,1	Yil oxiri ma'lumotlari to'liq emas
7	Ishsizlik darajasi (%)	–	–	–	–	4,5	Barqaror past daraja
8	Real pul daromadlar o'sishi (yanvar–mart 2024)	–	–	–	–	9,2	Qisqa muddatli o'sish

Manba: O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi.

1-jadvalda aholi turmush farovonligi ko'rsatkichlari tahlili 2020–2024 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish barqaror tus oldi. YAIM o'sish sur'ati 2020-yildagi pandemiya ta'siridan so'ng 2021-yilda 7,4% ga yetib, 2024-yilda 6,5% ni tashkil etdi. 2023–2024 yillarda jon boshiga real YAIM 4,4% ga o'sib, aholi farovonligi ortganini ko'rsatmoqda. Kambag'allik darajasi 2020-yildagi 17,0% dan 2024-yilga kelib 8,9% ga kamayib, "Farovonlik sari" dasturining ijobiy natijalarini aks ettirdi. O'rtacha oylik ish haqi 2020-yildagi 2,9 mln so'mdan 2023-yilda 5,35 mln so'mga oshdi, bu real daromadlarning o'sishiga xizmat qilgan.

Bandlik darajasi ham izchil ko'tarilib, 2023-yilga kelib 67,5% ga yetgan. 2024-yilgi ishsizlik darajasi 4,5% bilan nisbatan past va barqaror. Real pul daromadlarining o'sishi 2024-yil boshida 9,2% bo'lib, aholi xarid qobiliyatining ortganini ko'rsatmoqda (2-jadval).

2-jadvalda aholi turmush farovonligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va ularning 2020–2024 yillardagi o'zgarish dinamikasi tahlili O'zbekiston iqtisodiyotida aholi turmush farovonligiga ta'sir qiluvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy dinamikaning namoyon etdi.

2-jadval

Aholi turmush farovonligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va ularning o'zgarish dinamikasi (2020–2024)

Ko'rsatkichlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	Tahliliy izoh
YAIM (mlrd so'm)	580 203	734 584	889 976	1 153 048	1 290 000	Barqaror o'sish trendi mavjud
Jon boshiga YAIM (USD)	1 709	1 875	2 255	2 640	2 860	O'zgarish ijobiy, lekin MDH o'rtacha darajasidan past
Kambag'allik darajasi (%)	17,0	17,0	14,1	11,0	8,9	Sezilarli pasayish, lekin hududlar kesimida farq yuqori
Ishsizlik darajasi (%)	10,5	9,6	8,8	5,3	4,5	Ish o'rinlari soni ortmoqda, lekin norasmiy sektor keng
Aholining real daromadlar o'sishi (%)	-0,5	6,5	4,2	4,4	9,2	2024 yilda inflyatsiya darajasidan yuqoriroq
O'rtacha oylik ish haqi (mln so'm)	2,9	3,2	4,1	5,35	~6,2	So'nggi 5 yilda 2 martadan ko'proq o'sish

Manba: O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi.

Jumladan, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi 2020 yildagi 580,2 trln so'mdan 2024 yilda 1290 trln so'mgacha barqaror sur'atda oshib bordi. Bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM miqdori 2020 yilda 1709 AQSh dollaridan 2024 yilda 2860 dollargacha oshdi. O'sish sur'ati ijobiy bo'lsa-da, bu ko'rsatkich MDH davlatlari o'rtacha darajasidan pastligicha qolmoqda.

Kambag'allik darajasi 2020 yildagi 17 foizdan 2024 yilda 8,9 foizgacha pasayib, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanayotganini ko'rsatmoqda. Biroq bu boradagi hududlararo tafovutlar hali ham sezilarli darajada saqlanmoqda.

Ishsizlik darajasi ham sezilarli pasaydi – 2020 yildagi 10,5 foizdan 2024 yilda 4,5 foizgacha. Ish o'rinlarining ko'paygani quvonarli hol, lekin norasmiy mehnat bozori ulushi yuqoriligi qolmoqda.

Aholining real daromadlari o'sish sur'ati ham ijobiy bo'lib, 2024 yilda 9,2 foizni tashkil etdi. Bu inflyatsiya darajasidan yuqoriligi sababli aholining xarid qobiliyati oshganini anglatadi.

O'rtacha oylik ish haqi 2020 yildagi 2,9 mln so'mdan 2024 yilda 6,2 mln so'mgacha oshib, so'nggi 5 yilda ikki martadan ko'proq o'sdi. Bu esa aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlab, turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, 2020–2024 yillar davrida turmush farovonligining asosiy ko'rsatkichlari ijobiy yo'nalishda o'zgardi, biroq ularning sifat jihatdan chuqur tahlili va hududiy tengsizliklarni bartaraf etish borasida kompleks yondashuvni davom ettirish zarur.

Bu esa turmush farovonligini faqat daromadlar bilan emas, balki hayot sifati, teng imkoniyatlar, ishonchli investitsiyalar va davlat siyosatining samaradorligi orqali belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekistonda ham aholining real daromadlari o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga nisbatan sust bo'lib qolmoqda.

Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda aholi turmush farovonligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

- aholi bandligini ta'minlovchi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash lozim;
- har yili rasmiy bandlik o'sishiga yo'naltirilgan davlat dasturlarini amalga oshirish lozim;

–kam ta'minlangan oilalarning bolalarini ta'lim va sog'liqni saqlashda qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish zarur.

–mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari va fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish lozim;

–norasmiy bandlikda ishlayotganlarni rasmiylashtirish uchun yengillashtirilgan ro'yxatdan o'tkazish tizimini yaratish zarur;

–kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish orqali mehnat resurslarining samaradorligini oshirish zarur.

Yuqoridagi muammolar va ularning yechimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, turmush farovonligini ta'minlash bir vaqtning o'zida iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ekologik sohalarda uyg'un siyosat yuritilishini talab etadi.

Farovonlikning ta'minlanishi orqali nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi, balki iqtisodiy faollik, mehnat unumdorligi va inson kapitali sifatining oshishiga ham zamin yaratiladi. Bugungi kunda farovonlikni ta'minlash yo'lida turli sohalarda mavjud muammolar tizimli va institutsional yondashuvlar orqali bartaraf etilishi zarur.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Kahneman D., Deaton A. (2010) High income improves evaluation of life but not emotional well-being // Proceedings of the National Academy of Sciences. Vol. 107(38). P. 16489–16493.

Kvist J. (2015) Changing Social Risk Structures and Policy Responses in the Nordic Welfare States // International Journal of Social Welfare. Vol. 24, Issue 4. P. 321–332.

Layard R. (2005) Happiness: Lessons from a New Science. London: Penguin Books. 310 p.

OECD. (2020) How's Life 2020: Measuring Well-being. Paris: OECD Publishing. 252 p.

Mahmudov M.M. (2022) Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy siyosatning o'rni // Iqtisodiy taraqqiyot masalalari. №4. B. 45–53.

Малёва Т.М., Тапилина В.С. (2016) Субъективное благополучие: соотношение оценок и реалий // Общество и экономика. №10. С. 5–25.

Медведева Н.Г., Абишев С.А. (2020) Социальное неравенство и экономическое развитие в Казахстане // Центральнo-Азиатский экономический обзор. №2. С. 14–22.

Сен А. (2004) Развитие как свобода. М.: Логос. 416 с.

Шабунова А.А. (2017) Качество жизни населения: региональные различия и пути их сглаживания // Экономика региона. №1. С. 56–65.